

# O‘ZBEKISTON: YOSHLAR UCHUN MEHNAT BOZORIDAGI FAOL CHORA-TADBIRLAR

Ish qog'ozi

Muallif: Asiya Tureniyazova va Shoiraxon Nurdinova, 2026 yil

# MUNDARIJA

---

1	KIRISH	4
2	YOSHLAR MEHNAT BOZORI TAHLILI	7
3	INSTITUTIONAL TUZILMA VA BOSHQARUV	8
4	YOSHLAR UCHUN MEHNAT BOZORIDAGI FAOL CHORA-TADBIRLAR	10
5	MEHNAT BOZORIDAGI FAOL CHORA-TADBIRLARNING SAMARADORLIGI VA TA'SIRI	15
6	MUAMMOLAR VA BO'SHLIQLAR	16
7	XULOSA	17
8	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	19


---

# 1 KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti Markaziy Osiyoda eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan bir hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar 2017-yilda hukumat tomonidan besh yillik rivojlanish dasturi 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, so'ngra 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va jadallashdi. 2023-yilda O'zbekiston 2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini ("O'zbekiston–2030") qabul qildi.<sup>1</sup> Uning maqsadlari qatoridan shu o'n yillik oxiriga qadar daromad darajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirish ham o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyoti global xatarlar va makroiqtisodiy noaniqliklarga qaramasdan, barqarorlik va o'sishni namoyon etdi. 2025-yilning to'qqiz oyi dastlabki yakunlariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 1 303,7 trln so'mdan (108,7 mlrd dollar) oshib, 2024-yilning mos davriga nisbatan real hisobda 7,6 foizga o'sdi. Bu iqtisodiyot COVID-19 pandemiyasidan keyin tiklangan 2021-yildan buyongi eng yuqori o'sish sur'atidir.<sup>2</sup>


**1-jadval. YIM hajmi va o'sish sur'atlari**



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, <https://stat.uz/ru#>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida <https://lex.uz/docs/6600404>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi Matbuot uchun axborot [https://stat.uz/img/press-revizlar/analitika-vvp\\_rus\\_p48024.pdf](https://stat.uz/img/press-revizlar/analitika-vvp_rus_p48024.pdf)



2025-yil sentyabr holatiga ko'ra, 2024-yilning mos davriga nisbatan yalpi ichki mahsulotning (YIM) tarmoqlar tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 48,1 foizdan 49,4 foizgacha, sanoat ulushi 25,9 foizdan 26,1 foizgacha, qurilish ulushi esa 7,4 foizdan 7,5 foizgacha oshdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi esa 18,6 foizdan 17,0 foizgacha kamaydi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM 34 483,9 ming so'mni tashkil etib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan real hisobda 5,6 foizga ko'pdir. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 433,67 trln so'mni (36,17 mlrd dollar) yoki YIMning 33,3 foizini tashkil etdi va bu birinchi yarim yillik ko'rsatkichidan (32,9%) yuqoridir. Shundan norasmiy sektor hissasiga YIMning 25,6 foizi, yashirin iqtisodiyot hissasiga esa 7,7 foizi to'g'ri keladi.<sup>3</sup>

## 2-jadval. O'zbekiston raqamlarda (2025-yil yanvar-sentyabr holatiga ko'ra)



<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi Matbuot uchun axborot [https://stat.uz/img/press-revizlar/analitika-vvp\\_rus\\_p48024.pdf](https://stat.uz/img/press-revizlar/analitika-vvp_rus_p48024.pdf)

## O'ZBEKISTON RAQAMLARDA

(2025 yil yanvar – sentyabr holati bo'yicha)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, <https://stat.uz/ru#>

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish prognozi barqarorligicha qolmoqda, zero hukumat mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xususiy sektor o'sishi bilan rag'batlantiriladigan yanada raqobatbardosh va shaffof ishbilarmonlik muhitini yaratish yo'nalishini davom ettirmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) taxminlariga ko'ra, O'zbekistonda YIM o'sish sur'ati 2026-yilda qariyb 6 foizni, 2027-yilda esa 5,7 foizni tashkil etadi.<sup>4</sup>

Shunga qaramay, aholisi 38 million kishini, shundan 9 630 556 nafarini (25,7 foiz) yoshlar tashkil etadigan O'zbekiston<sup>5</sup> uchun kun tartibidagi asosiy muammolardan biri yoshlar, ayniqsa, qishloq hududlari va ayollar o'rtasidagi ishsizlikning yuqori darajasi bo'lib qolmoqda (quyiga qarang). So'nggi besh yilda yangi ish o'rinlarini yaratish sur'ati pastligicha qoldi – o'rtacha hisobda yiliga atigi 1,1 foizni, ayni shu davrda aholining o'rtacha yillik o'sishi qariyb 2 foizni tashkil etdi. Prognozlarga ko'ra, mehnatga layoqatli aholi sonining yillik sof o'sishi taxminan 250 ming kishini tashkil etadi, bu esa bandlikning jadal o'sishini talab qiladi.<sup>6</sup>

XMTning modellashtirilgan baholariga ko'ra, O'zbekiston mehnat bozori so'nggi yillarda bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Aholining umumiy iqtisodiy faollik darajasi 2020-yildagi 55,5 foizdan 2025-yilga kelib 57,5 foizgacha o'sdi, bu esa mehnat bozorida ishtirokning kengayayotganini aks ettiradi. Xuddi shu davrda ayollarning ishtirok etish darajasi ham 39,1 foizdan 41,2 foizgacha, 15–24 yoshdagi yoshlarning iqtisodiy faollik darajasi esa 35,6 foizdan 37,5 foizgacha oshdi. Ayni vaqtda, aholining barcha asosiy guruhlar bo'yicha ishsizlikning kamayishi kuzatildi: umumiy ishsizlik darajasi 2020-yildagi 5,3 foizdan 2025-yilga kelib 4,6 foizgacha, ayollar o'rtasidagi ishsizlik 7,7 foizdan 6,6 foizgacha, 15–24 yoshdagi yoshlar orasidagi ishsizlik esa 12,8 foizdan 11,4 foizgacha pasaydi.<sup>7</sup>

Mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutishda davom etmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, pul o'tkazmalari hajmi sezilarli darajada bo'lib, 2020-yildagi YIMning 10,7 foizidan 2024-yilga kelib 14,4 foizgacha oshgan. Bu O'zbekistonlik muhojirlarning xorijdan olayotgan daromadlari uy xo'jaliklari farovonligi va makroiqtisodiy barqarorlik uchun nechog'li muhim ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatda migratsiyaning salbiy saldosi saqlanib qolmoqda, biroq uning ko'lamini biroz qisqargan: sof migratsiya 2020-yildagi –9 208 kishidan 2024-yilda –7 066 kishiga yetib, ijobiy tomonga o'zgaragan. Bu tendensiyalar migratsiya dinamikasidagi bosqichma-bosqich o'zgarishlar bilan bir qatorda, tashqi mehnat bozorlariga bog'liqlik davom etayotganini namoyon qiladi.<sup>8</sup> Xalqaro

<sup>4</sup> Xalqaro valyuta fondi. Real YIM o'sishi, Yillik foiz o'zgarishi. [https://www.imf.org/external/datamapper/NGDP\\_RPCH@WEQ/UZB?zoom=UZB&highlight=UZB](https://www.imf.org/external/datamapper/NGDP_RPCH@WEQ/UZB?zoom=UZB&highlight=UZB)

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi. O'zbekistonda yoshlar soni qancha? <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/63006-o-zbekistonda-yoshlar-soni-qancha-2>

<sup>6</sup> O'zbekistondagi Jahon banki guruhi

<sup>7</sup> International Labour Organisation. <https://ilostat.ilo.org/data/>

<sup>8</sup> World Development Indicators | DataBank

migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-sentyabr holatiga xorijda 2 118 000 nafarga yaqin O'zbekiston fuqarosi mehnat qilgan bo'lib, ularning 33,2 foizini (702 900 nafar) yoshlar tashkil etadi.<sup>9</sup>

Davlat bandlik siyosatini takomillashtirish, jumladan, kasb-hunarga o'qitish dasturlarini amalga oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va bandlik xizmatlarini modernizatsiya qilish bo'yicha faol chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Shuningdek, zamonaviy mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan ko'nikmalarni, xususan, raqamli va tadbirkorlik layoqatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat bozorida vaziyatdan kelib chiqqan holda, ushbu hisobot doirasida yoshlar mehnat bozori, institutsional tuzilmalar va boshqaruv, yoshlarning ehtiyojlarini inobatga olgan faol mehnat bozori chora-tadbirlari tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu chora-tadbirlarning samaradorligi baholandi, mavjud muammo va kamchiliklar ko'rib chiqilib, yoshlar bandligiga ko'maklashish siyosatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Hisobot ETF DARYA loyihasi doirasida tayyorlangan bo'lib, asosan kabinet tadqiqotlariga tayanadi.

## 2 YOSHLAR MEHNAT BOZORI TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 12-avgustdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar yoshlar deb hisoblanadi.<sup>10</sup> Bu ta'rif barcha rasmiy dasturlarda, jumladan, mehnat bozorida chora-tadbirlarda ham qo'llanilib, mehnat faoliyatining dastlabki bosqichida turgan yosh toifasiga e'tibor qaratilishini ta'minlaydi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Respublika bo'yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 630 556 nafarni, ya'ni umumiy aholi sonining 25,7 foizini tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, 2024-yilda mamlakatda 342 000 nafar ishsiz yoshlar qayd etilgan. Ish tajribasiga ega bo'lmagan yosh bitiruvchilar ishga joylashishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishda davom etmoqda va chet elda malaka talab qilmaydigan ishlarda mehnat qilishga majbur bo'lmoqda. Yoshlarning katta qismi norasmiy sektorda band bo'lib, bu ularni ijtimoiy himoyadan mahrum qiladi va mansab pillapoyalaridan ko'tarilish imkoniyatlarini cheklaydi. Jahon bankining so'rovnomalari asosida hisoblangan tahliliy hisobotiga ko'ra, 16–24 yoshdagi yoshlarning 24 foizi ishlamaydigan, o'qimaydigan va kasbiy tayyorgarlikdan o'tmaydigan (NEET) toifasiga kiradi; 16–29 yoshdagi yoshlar uchun bu ko'rsatkich 26,4 foizni tashkil etadi. Yosh ayollar ishsizlikning yuqoriroq darajasiga duch kelmoqda (erkaklarda 10 foiz bo'lgan holda, ayollarda 15,5 foiz). NEET yosh ayollar ulushi esa erkaklardagi 8,8 foiz ko'rsatkichga nisbatan 42 foizga yetgan. Bundan tashqari ishdagi gender tafovuti ham sezilarli: ayollar erkaklarga qaraganda 34 foiz kamroq maosh oladi, bu esa dunyodagi o'rtacha 20 foizlik ko'rsatkichdan yuqoridir.<sup>11</sup>

Kadrlar tayyorlash tizimi bilan iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, rasmiy ish o'rinlariga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, yosh ish izlovchilarning salmoqli qismida kasbiy malakaning yetishmasligi yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuviga to'siq bo'layotgan asosiy omillardir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidagi ko'rsatkich tashvishlanarli: 2024-yilda 350 mingdan ortiq, jumladan, 112 ming oliy ma'lumot talab qiladigan bo'sh ish o'рни mavjudligiga qaramay, bitiruvchilarning 59 foizi o'qishni tamomlagach, darhol ish topa olmagan.<sup>12</sup> Shuningdek, ish beruvchilarning tegishli sohada ish tajribasini talab qilishi ham oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning ishga joylashishini qiyinlashtirmoqda.

<sup>9</sup> International Organization for Migration (2024). Uzbekistan – Migration data gap analysis.

[https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/documents/2025-01/mtm-data-mapping\\_uzbekistan\\_final\\_04-11-24\\_2.pdf](https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/documents/2025-01/mtm-data-mapping_uzbekistan_final_04-11-24_2.pdf)

<sup>10</sup> Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni <https://www.lex.uz/acts/3026246>

<sup>11</sup> [https://t.me/statistika\\_ru/1147](https://t.me/statistika_ru/1147). Uzbekistan Country Gender Assessment Report (2024) Jahon Banki saytidagi

<https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024>

<sup>12</sup> Bitiruvchilarning qariyb 60 foizi ish topa olgani yo'q – O'zbekiston Bandlik Vazirligi <https://www.gazeta.uz/ru/2024/08/12/labor/>

30 yoshgacha bo'lgan yosh xodimlarning yarmi o'zini o'zi band qilgan bo'lib, ular ko'pincha oila a'zolariga yordamchi sifatida faoliyat yuritadi. Yoshlar ko'pincha bozorlar, raydshering xizmatlari, gig-iqtisodiyot va mavsumiy qishloq xo'jaligi kabi sohalarda, ya'ni norasmiy sektorda nomutanosib ravishda band. Bu esa uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib keladi: mehnat bozoriga norasmiy bandlik orqali kirib kelish umr davomida past daromadni mustahkamlab qo'yishi va insonlarni ijtimoiy himoya tizimidan chetda qoldirishi mumkin. Sug'urta badallarining yo'qligi kelajakda pensiya, tibbiy sug'urta va onalik nafaqalaridan foydalanish imkoniyati bo'lmasligini anglatadi. Taxminan har beshinchi yigit-qiz qishloq xo'jaligida ishlaydi. Natijada qishloq yoshlarining aksariyati norasmiy qishloq xo'jaligi ishlari yoki mardikorlik bilan band bo'lib qolmoqda.<sup>13</sup>

Yosh ayollar, qishloq yoshlari, nogironligi bo'lgan yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar vakillari bandlik dasturlarida ishtirok etishda ko'pincha to'siqlarga duch keladi.<sup>14</sup> Bu madaniy normalar, xabardorlikning pastligi, transport muammolari, moslashtirilgan sharoitlarning yo'qligi yoki ish beruvchilar tomonidan kamsitish holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, barcha dasturlarda ham moslashuvchan ta'lim shakllari ko'zda tutilmagan, bu esa ayniqsa oilaviy mas'uliyati bor yosh ayollar uchun muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- Malakalarning mehnat bozori talablariga nomuvofiqligi, yosh mutaxassislarni tayyorlashga ish beruvchilarning, ayniqsa, biznes va xususiy sektorning jalb etilganlik darajasi pastligi.
- Mehnat bozorida ishtirok aholining turli guruhlari o'rtasida sezilarli farq qiladi: ayollar, ma'lumoti past shaxslar va qishloq aholisi ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi va ularning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki darajasi pastroqdir.

### 3 INSTITUTSIONAL TUZILMA VA BOSHQARUV

O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha asosiy institut O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hisoblanadi. U aholini, jumladan, yoshlarni ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'uldir. Vazirlik faol bandlik dasturlarini, xususan, kasbga o'qitish, ish o'rinlarini yaratish uchun subsidiyalar ajratish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va hududiy bandlik markazlarini rivojlantirishni ishlab chiqish hamda joriy etishda asosiy muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Hududlar miqyosida bandlik bo'yicha hududiy boshqarmalar faoliyat yuritadi va ular bo'sh ish o'rinlarini topish, ishsizlarni ro'yxatga olish, kasbga o'qitishga yo'naltirish hamda jamoat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Bu jarayonda ular mahalliy hokimiyat organlari, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

"Yoshlar — kelajagimiz" strategiyasi doirasida tashkil etilgan Yoshlarga ko'maklashish markazlari yoshlarni ish bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular kasbga yo'naltirish, maslahat berish, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi, shuningdek, biznes ochish uchun mikromoliyaviy yordam olishga ko'maklashadi.

Shuningdek, quyidagilar ham institutsional tizimning muhim ishtirokchilari hisoblanadi:

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi— o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, Oliy va kasbiy ta'limni rivojlantirish uchun mas'ul;
- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi— maktablarda o'quvchilarni ertadan kasbga yo'naltirish loyihalarini amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi – yoshlar tashabbuslarini, jumladan, ularning bandligi sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi;

<sup>13</sup> UNDP. (2025). *O'zbekistonda norasmiy bandlik* <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/informal-employment-uzbekistan>

<sup>14</sup> Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti(2025). *Mehnat bozorida nogironligi bo'lgan yoshlar duch keladigan to'siqlar* <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/barriers-young-people-disabilities-face-labour-market>

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etilgan bo'lib, ular ish izlayotgan va ishsiz shaxslarni kasb-hunarga tayyorlashni ta'minlaydi;
- "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi va uning tuman (shahar) filiallari – Yoshlar ittifoqi huzuridagi NNT bo'lib, yoshlarning startup loyihalari uchun grant va kreditlar ajratadi hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitadi;
- Bandlik vazirligi huzuridagi Milliy bandlik markazi – hududiy markazlar faoliyatini muvofiqlashtiradi va mehnat bozori haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Yoshlar mehnat guzarlari davlat-xususiy sheriklik asosida qurilmoqda: "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi xarajatlarning 30 foizigacha bo'lgan qismini moliyalashtiradi, xususiy investorlar esa guzarlarni saqlash va yoshlar uchun ish o'rinlarini yaratish (~70 foiz) sharti bilan qurilish ishlarini amalga oshiradi. Respublika bo'yicha 125 ta "Yoshlar mehnat guzari" hamda 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi foydalanishga topshirilgan.<sup>15</sup>

Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar Bandlik vazirligining Bo'sh ish o'rinlari milliy bazasi – <https://ish.mehnat.uz> saytida, shuningdek, <https://vacancy.argos.uz> portalida joylashtiriladi.

### Yoshlar uchun faol chora-tadbirlarning huquqiy-siyosiy asoslari

Yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosati bir qator strategik hujjatlarga tayanadi:

- "O'zbekiston — 2030" taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'limga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va mehnat bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan;
- 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki o'zini o'zi band qilish uchun subsidiyalar ajratish kabi yoshlar bandligini kengaytirish chora-tadbirlarini nazarda tutadi;
- O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni belgilaydi;
- "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni yoshlarning kasbiy ta'lim olish, stajirovka o'tash va ishga joylashishda qo'llab-quvvatlanish huquqi to'g'risidagi qoidalarni jamlaydi;
- "Yoshlar balansi" ma'lumotlar bazasi. Yoshlar – kelajagimiz dasturi - yoshlar bandligi va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks tashabbus;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.<sup>16</sup> Yoshlar agentligining ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatish, ATdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, reestruga kiritilgan kambag'al oilalar yoshlarini ish bilan ta'minlashga qaratilgan "Yoshlar daftari" dasturi joriy etilgan.<sup>17</sup>

### Manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari

O'zbekiston yoshlar bandligi siyosatini boshqarishda idoralararo va tarmoqlararo yondashuvni shakllantirishga intilmoqda. Muvofiqlashtirish mexanizmlari quyidagilardan iborat:

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2018 yildagi PF-5466-son "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida <https://lex.uz/docs/3826817?ONDATE2=09.06.2021&action=compare>

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021 yildagi PF-6260-son Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida <https://www.lex.uz/uz/docs/5512122>

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.06.2022 yildagi 312-son Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://www.lex.uz/uz/docs/6051791>

- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idoralararo ishchi guruhlar;
- Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshiriladigan, yoshlar ishtirokini ta'minlovchi muloqot platformalari;
- Xususiy sektor bilan hamkorlik, ayniqsa, dual ta'lim va amaliyotlar doirasida;
- Yoshlar bandligini boshqarishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan xalqaro tashkilotlar (XMT, BMTTD, Jahon banki) bilan hamkorlik.

Muvaffaqiyatlarga qaramay, institutsional tizimni yanada mustahkamlash, birinchi navbatda, o'zaro hamkorlik mexanizmlarining shaffofligi, izchilligi va barqarorligini oshirish talab etiladi. Yoshlar bandligi siyosatini shakllantirish va uning monitoringini olib borishda yoshlarning o'z ishtirokini kengaytirish ayniqsa muhimdir.

## 4 YOSHLAR UCHUN MEHNAT BOZORIDAGI FAOL CHORA-TADBIRLAR

O'zbekistonda yoshlar bandligini oshirish va yosh fuqarolar o'rtasida ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan mehnat bozorida faol chora-tadbirlarni (MBFCH) ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamlı sa'y-harakatlar qilinmoqda. Bu chora-tadbirlar ham davlat dasturlari doirasida, ham xalqaro tashkilotlar ko'magida amalga oshirilmoqda. Mazkur sohadagi siyosat inson kapitalini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini takomillashtirish va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

“Yoshlar balansi” ma'lumotlar bazasi yaratilgan va uning asosida yoshlar qizil, sariq va yashil kabi 3 ta toifaga ajratilgan. Ushbu baza asosida mahallalarda mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda har bir mahallani qizil toifadan yashil toifaga o'tkazish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarga mo'ljallangan faol mehnat bozori siyosati chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Bandlikka ko'maklashish markazlari orqali yangi ishga qabul qilingan xodimlarni o'qitish uchun subsidiyalar ajratish; biznesni tashkil etish va sug'urtalash; shogirdlik; o'quv markazlarida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha yangi kurslar ochish; jamoat ishlariga yollash; ish topishga yordamlashish; shuningdek, davlat banklari tomonidan imtiyozli stavkalarda kreditlar berish va yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlarni ishga yollagan korxonalar uchun soliq imtiyozlari taqdim etish orqali yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar — kelajagimiz” va “Yoshlar daftari” dasturlari. Mehnat bozori ehtiyojlarini xalqaro standartlarga muvofiq eng yaxshi darajada qondirish, kasbiy malakani baholash tizimini joriy etish, mamlakat bo'ylab yangi o'quv markazlarini ochish orqali kasbiy tayyorgarlik uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida professional ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha sa'y-harakatlar qilindi. Shuningdek, yoshlarga bepul yer ajratish orqali ularning qishloq xo'jaligi sohasida ishlashga qiziqishini oshirish uchun investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda imtiyozli kreditlar vositasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish choralari ko'rildi. 2021-yilda barcha hududlarda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (Texnoparklar)ni tashkil etish hamda tadbirkorlarni yosh mutaxassislarni ishga yollashga rag'batlantirish to'g'risida Prezident qarorlari qabul qilindi. Yangi davlat muassasasi – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

2025-yil 1-fevraldan ishsizlarni, shu jumladan kam ta'minlangan oilalar a'zolarini kasblar va xorijiy tillarga o'qitishni moliyalashtirishning vaucher tizimi joriy etildi. Ish beruvchilarning buyurtmalari hamda tijorat banklari mijozlarining ehtiyojlari asosida ishsizlarni, jumladan, “Kam ta'minlangan oilalar reestri”ga kiritilgan yoki rasmiy daromadga ega bo'lmay ish qidirayotgan oilalarning ishsiz a'zolarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar va xorijiy tillarga maqsadli o'qitish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan vaucher tizimi orqali

moliyalashtirish belgilangan. [www.ecosys.mehnat.uz](http://www.ecosys.mehnat.uz) saytida vaucher tizimi bo'yicha o'qitadigan ta'lim tashkilotlarining elektron reestri yuritiladi.<sup>18</sup>

Hozirgi vaqtda o'qishdan ishga o'tishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bandlikka ko'maklashishning mavjud dasturlari kasbiy tayyorlash va ishga joylashtirish xizmatlaridan tortib, ish beruvchilarni ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsizlarni ishga yollashga rag'batlantirish hamda yangi xodimlarni, jumladan yoshlarni o'qitishni ta'minlashga mo'ljallangan ish haqi subsidiyalarigacha, shuningdek, jamoat ishlari va qishloq joylarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini o'z ichiga oladi.

#### 4.1. Faol chora-tadbirlar sharhi

Kasb-hunarga o'qitish markazlari Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) ko'magida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi homiyligida tashkil etilgan. Ularning faoliyati ishsiz va band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda tasdiqlash, tadbirkorlik va chet tillariga o'qitish, shuningdek, kasbga yo'naltirishga qaratilgan. Markazning 5 ta filiali (Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Urganch, Shahrisabz) mavjud. Ta'lim asosan mashinasozlik, elektronika, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, payvandlash/tokarlik, qurilish, axborot texnologiyalari kabi kasbiy faoliyat sohaslarida olib boriladi. O'quvchilar 6 oylik ta'limdan so'ng hamkor kompaniyada 2 oylik amaliyot o'taydi va kursni tamomlagach, diplom olishlari mumkin. Shuningdek, xorijda ishlash istagida bo'lganlar uchun qisqa muddatli (1 oydan 3 oygacha) o'quv kurslarini tashkil etuvchi markazlar ochilgan Kasb-hunar ta'limi (KHT) qishloq joylarda, ayniqsa, modernizatsiya qilingan qishloq xo'jaligi sohasida bandlik darajasini oshirish maqsadida rivojlantirilmoqda. Yevropa Ittifoqi - YUNESKO hamkorligi kabi loyihalar O'zbekistonning ayrim hududlarida kasbiy ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

2025-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'zini o'zi band qilish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chatlarni xarid qilish uchun "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali to'lanadigan ssudalar va subsidiyalar Kambag'allikni qisqartirish maqsadli davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladi.<sup>19</sup>

O'zbekistonda gender tengsizlikni qisqartirishga qaratilgan ta'lim sohasidagi chora-tadbirlarning salmoqli samarasini inobatga olgan holda, xotin-qizlar ta'limini rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat olib borilmoqda. Jumladan, xotin-qizlarning 2022–2026-yillarda mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha sohaslaridagi faolligini oshirish milliy dasturida ularni oliy va kasbiy ta'limi bilan qamrab olishni kengaytirish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan.<sup>20</sup> Bular qatoriga oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini oshirish, ta'lim kreditlarini ajratish va qizlar uchun davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida bepul o'qish imkoniyatini yaratish kiradi.

#### 4.2. Mehnat bozorida faol chora-tadbirlarning tasnifi

O'zbekistonda 2023–2024-yillarda bu yo'nalishlar bir qator davlat dasturlari va tashabbuslari orqali amalda o'z ifodasini topdi.

Mehnat bozorida faol chora-tadbirlar:

- 1) Bandlikka ko'maklashish xizmatlari
- 2) O'qitish va qayta tayyorlash
- 3) Ish beruvchilarni rag'batlantirish
- 4) Ish o'rinlarini bevosita yaratish

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.08.2025 yildagi 527-son Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini jalb qilgan holda vaucher asosida kasb va xorijiy tillarga o'qitish tizimini joriy qilish to'g'risida <https://lex.uz/docs/7694451>

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-17-son Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/7374368>

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/5899500>

## 5) Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlash

Aholiga bandlikka ko'maklashish maqsadida, Bandlik agentligi huzuridagi aholi bandligiga ko'maklashish markazlari hamda bo'sh ish o'rinlari va maslahatlardan onlayn foydalanish imkonini beruvchi <https://ish.mehnat.uz/> raqamli platformasi xizmat ko'rsatadi.

O'qitish va qayta tayyorlash "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi, korxonalaridagi dual ta'lim hamda davlat muassasalari huzuridagi qayta tayyorlash kurslari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi Farmoniga muvofiq<sup>21</sup>, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida professional ta'lim tashkilotlari (texnikumlar) faoliyatini muvofiqlashtirish hamda professional ta'lim sohasini boshqarishga mas'ul bo'lgan Kasbiy ta'limi agentligi tashkil etilgan. Agentlik mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha professional ta'lim tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan professional ta'lim dasturlari mazmuniga, ular bo'yicha beriladigan malaka darajalariga, o'qitishning eng kam muddatlariga, bitiruvchilarning bilimni baholash mezonlariga, shuningdek, o'quv-uslubiy ta'minotga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

### *Agentlik uchun:*

(i) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "vaucher" tizimi bilan qamrab olinmagan shaxslarni kasblarga o'qitish bo'yicha buyurtmalar beriladi. Bunda fuqarolarni "vaucher" tizimi va buyurtmalar asosida o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

(ii) Migratsiya agentligi xorijiy ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, kasblar, mutaxassisliklar va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha buyurtmalar beradi. Bunda texnikumlarda o'qitish va ularning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish uchun zarur mablag'lar Migratsiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladi. Agentlikka davlat texnikumlarida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish uchun xorijiy tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat etiladi.

Yosh mutaxassislarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiyalar berish, shuningdek, bitiruvchilar uchun ish o'rinlarini yaratgan korxonalariga soliq imtiyozlari taqdim etish kabi rag'batlantirish choralarini qo'llaniladi. Xususan, 2021-yildan boshlab ish beruvchilarga ularning 25 yoshgacha bo'lgan xodimlaridan o'ndiriladigan ijtimoiy soliq summasini qoplash uchun ish haqiga subsidiyalar, shuningdek, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi uchun olti oy davomida har oy 500 000 so'mdan subsidiyalar joriy etilgan.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadli davlat jamg'armasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida Yoshlar ishlari agentligi qoshida davlat muassasasi shaklida tashkil etildi. Bandlik markazlari orqali jamoat/mavsumiy dala/ijtimoiy ishlar, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish kabi yo'nalishlarda bevosita ish o'rinlari yaratish mahallalar va hokimliklar yordamida tashkil etilib, bu kam ta'minlangan yoshlarni mehnat faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi, ammo vaqtinchalik mavsumiy ish o'rinlari va qisqa muddatli bandlikni taklif etuvchi dasturlar uzoq muddatli ish kafolatini bermaydi. Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda: Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali, jumladan, "Yoshlar daftari" tashabbusi doirasida yosh fuqarolarga imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilayotgan bo'lsa, akseleratsiya markazlari yoshlar startaplarini rivojlantirishga ko'maklashmoqda. Tijorat banklari yordamida 20 ming nafar bitiruvchining o'z biznesini yo'lga qo'yishiga yordam ko'rsatilgan. Xususan, yoshlar bandligini moliyalashtirish uchun "Milliy bank" va "Aloqabank"ka 300 million AQSh dollar ajratildi.

22

2025-yil 14-fevral kuni Prezident O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligining yangi davrini boshlashga qaratilgan uchta asosiy hujjatni taqdim etdi. Bu tashabbuslar mamlakat bo'ylab yoshlarga kengroq imkoniyatlar yaratish orqali ular o'rtasidagi ishsizlikka qarshi kurashishga va innovatsiyalarni

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2025 yildagi PF-190-son Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://www.lex.uz/uz/docs/7792559>

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sahifasi. Bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlar belgilandi. 08.08.2025

rag'batlantirishga yo'naltirilgan.<sup>23</sup> Birinchi hujjat bilan Yoshlar ishlari agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, uning faoliyatiga 100 million AQSh dollari ajratilishi belgilangan. Bu yosh tadbirkorlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar, tashabbuskor yoshlarga esa o'z startap-loyihalari uchun 2 milliard so'mgacha sarmoya jalb qilish imkoniyatini beradi.<sup>24</sup>

Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining bandlik darajasini oshirishga qaratilgan yangi tizim joriy etilgan. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda banklar bitiruvchilarning g'oya va tashabbuslarini hayotiy loyihalarga aylantirishga yordam beruvchi yangi moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda.<sup>25</sup> "Yoshlar banki" sifatida belgilangan "Aloqabank" yoshlarning biznes loyihalari qo'llab-quvvatlash uchun mas'uldir. Bu maqsadlarga 200 million AQSh dollari ajratildi. Bank o'zini o'zi band qilgan yoshlarga 100 million so'mgacha bo'lgan miqdorda mikroqarzlarni 7 yil muddatga taqdim etadi. Shuningdek, kamida 20 nafar yoshni ish bilan ta'minlagan, kichik biznes yoki o'quv markazlari ochgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit olishlari mumkin bo'ladi. Ushbu kreditlarning kamida 30 foizi tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Mamlakatning turli hududlarida yoshlar biznes-inkubatorlari tashkil etilib, bu yerda yoshlarning g'oyalari rivojlantirilib, startaplarga aylantiriladi. Mazkur loyihalar 6 oydan 3 yilgacha qo'llab-quvvatlanadi va ularning to'laqonli korxonalariga aylanishiga ko'maklashiladi. "Aloqa Venture" jamg'armasi startaplarga 50 mingdan 1 million AQSh dollarigacha sarmoya kiritib, mahsulot va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozorlarda sotilishiga, shuningdek, ishbilarmon hamkorlar va qo'shimcha investitsiyalar topishga yordam beradi.<sup>26</sup>

2024-yilda yoshlarga 56 ming gektar yer ajratilishi natijasida qishloq xo'jaligida 153 ming nafar yoshning bandligi ta'minlangan. 2025-yilda foydalanilmayotgan 3 ming 300 gektar yer yangi shartlar asosida ijaraga berilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun yoshlar kooperatsiyalari tashkil etilgan, sanoat zonalarida o'z biznesini yo'lga qo'ygan yosh tadbirkorlar esa asbob-uskunalar xarid qilish uchun 500 ming AQSh dollarigacha kredit olish imkoniyatiga ega bo'lgan.<sup>27</sup>

Mamlakat rahbariyati yoshlar ishsizligining salbiy oqibatlarini, jumladan, yoshlarning noqonuniy faoliyatga, diniy ekstremizm va jinoyatchilikka jalb etilishi xavfini e'tiborga olingan. Yoshlarni kasb-hunar va til bilimlari bilan ta'minlash hamda yuqori daromadli ishlarga joylashtirish maqsadida joriy yilda umumiy moliyalashtirish hajmi 126 trillion so'mni tashkil etgan keng ko'lamli bandlik dasturi ishga tushirilgan. Dastur mahallalardagi 378 mingta mikroloyihani moliyalashtirishni ko'zda tutadi, bu esa mahalliy banklarning yangi kredit mahsulotlari orqali 250 ming kishiga barqaror daromad manbaiga ega bo'lish imkonini berilgan. Yoshlarni texnologik sohalarda strategik qarorlar qabul qilishga tayyorlash uchun texnika oliygozlari huzurida 8 ta ilg'or muhandislik maktabi o'z faoliyatini boshladi va joriy yilda yana 5 ta shunday maktab ochilishi belgilangan.<sup>28</sup>

Kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ishga yollagan va ularga har oyda eng kam ish haqining 1,5 baravaridan yuqori miqdorda oylik to'laydigan tadbirkorlik subyektlari ushbu xodimlarning mehnatiga haq to'lash xarajatlari bo'yicha ijtimoiy soliqli 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda 1 foiz stavkada to'laydi. 2024-yil 1-sentyabrdan 2027-yil 1-sentyabrgacha bo'lgan davrda

<sup>23</sup> Uzbekistan's efforts to combat youth unemployment reach a new phase <https://yoshlarkelajagimiz.uz/en/uzbekistans-efforts-to-combat-youth-unemployment-reach-a-new-phase/>

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.02.2025 yildagi PQ-60-son Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/7386894#7391245>

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.11.2025 yildagi PQ-328-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/7808448>

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.02.2025 yildagi PQ-60-son Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/7386894>

<sup>27</sup> Yoshlar Ishlari Agentligi. Yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va Yoshlar forumi 2024 yakunlari bo'yicha brifing o'tkazildi. <https://gov.uz/en/yoshlar/news/view/31498>

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-278-son Yangi avlod muhandislarini tayyorlash va muhandislik ta'limini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/7732515?ONDATE=18.09.2025>

maktab, kollej va texnikum o'quvchilarini (30 yoshgacha) kasbiy ta'lim olish uchun ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari ularga to'lanadigan ish haqidagi ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'laydi.<sup>29</sup>

Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida namunaviy "Kreativ park" tashkil etilgan va hududlarda ham shunday parklar qurilishi rejalashtirilgan. Bu parklar zarur infratuzilma va resurslar bilan jihozlanadi. Ushbu parklar rezidentlari 2030-yilgacha imtiyozli soliq rejimlaridan foydalanadi, jumladan, ular uchun ijtimoiy va daromad solig'i stavkalari 50 foizga kamaytiriladi. Bu parklar doirasida kreativ sanoat vakillarini tayyorlashga mo'ljallangan biznes maktablari tashkil etiladi. Mazkur maktablarda biznes yuritishning innovatsion usullari, jumladan, elektron tijorat va xizmat ko'rsatishning zamonaviy metodlari o'rgatiladi.

### "Yoshlar daftari" va yoshlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'plami

- Yoshlar ishlari agentligi, hokimliklar, tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi.
- Prezident farmonlari doirasida banklarning alohida kredit liniyalari Respublika byudjeti va maqsadli davlat dasturlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;
- Manzilli qo'llab-quvvatlash (o'qitish, grantlar/mikrokreditlar, ishga joylashishga ko'maklashish), bandlik dasturlaridan ustuvor foydalanish huquqi.

2025-yilda yirik chora-tadbirlar to'plami ishga tushirilgan:

- Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi — 100 mln AQSh dollar (startaplarga 2,5 mlrd so'mgacha imtiyozli kreditlar va 2 mlrd so'mgacha investitsiyalar);
- Bitiruvchilarni ishga joylashtirishning yangi tizimi (Milliy bank orqali — 100 mln AQSh dollar va ishga joylashtirish bo'yicha idoralararo komissiyalar);
- "Aloqabank" "Yoshlar banki"ga o'zgartirilishi belgilangan — 200 mln AQSh dollar: 100 mln so'mgacha (7 yil muddatgacha) mikroqarzarlar, 20 va undan ortiq yoshlarni ishga yollagan tashkilotlarga 5 mlrd so'mgacha imtiyozli qarzarlar, kamida uning 30 foizi tadbirkor ayollar uchun ajratilishi belgilangan;
- Yoshlarga oyiga 3 mln so'm va undan ko'p maosh to'laydigan ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliq bo'yicha 3 yil muddatga 1 foizlik imtiyoz;
- 2030-yilgacha imtiyozli soliq rejimi va biznes maktablariga ega bo'lgan kreativ parklar.

UNICEF eng zaif qatlamlarga — chekka hududlardagi yoshlar, qizlar, nogironligi bo'lgan yoshlar, vaqtincha ko'chib kelganlar va ishsizlarga alohida e'tibor qaratgan holda, ko'nikmalarni rivojlantirish va ishga joylashtirish dasturlarini taqdim etadi. So'nggi to'rt yil ichida 1,8 milliondan ortiq yoshlar (893 761 nafardan ziyod o'g'il bola va 894 053 nafardan ziyod qiz bola) quyidagi dasturlar doirasida o'zlarining ijtimoiy, hissiy, tadbirkorlik, raqamli va STEM ko'nikmalarini, shuningdek, ishga joylashish uchun zarur bo'lgan malakalarini oshirdilar:<sup>30</sup>

- UPSHIFT – yoshlarni ijtimoiy innovatsiyalar va tadbirkorlikka o'rgatish dasturi bo'lib, eng zaif qatlamdagi o'smirlarni, xususan, qizlarni, chekka qishloqlardagi yoshlarni, nogironligi bo'lgan yigit-qizlarni, mehribonlik uylari bitiruvchilarini hamda NEET guruhidagi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.
- "Skills4Girls" ta'lim dasturi chekka hududlardagi qizlarga hamda ko'rish va eshitishda nuqsoni bo'lgan qizlarga ishga joylashish uchun kompyuter savodxonligi, dasturlash kabi raqamli va moslashuvchan ko'nikmalarni egallashga ko'maklashadi.
- Qizlar uchun mo'ljallangan "UniSat" STEM ta'lim dasturi ularning dasturlash, muhandislik, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga, koinot va iqlimshunoslik sohasidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.12.2024 yildagi O'RQ-1014-son Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/7279959>

<sup>30</sup> O'smir va yoshlarning rivojlanishi va qatnashishi.

<https://www.unicef.org/uzbekistan/%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%B2%D0%B8%D1%82%D0%B8%D0%B5-%D0%B8-%D1%83%D1%87%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%B5-%D0%BF%D0%BE%D0%B4%D1%80%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%BA%D0%BE%D0%B2-%D0%B8-%D0%BC%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D0%B6%D0%B8?utm>

- Chatga asoslangan “FunDoo” raqamli platformasi yoshlarga, jumladan, aholining zaif qatlamlariga mansub yigit-qizlarga interaktiv va mustaqil o‘qish tarzida kelajakka tayyorgarlik ko‘rish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ishga joylashish bilan bog‘liq XXI asr ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi.

Shu tariqa, bandlikni ta‘minlashning faol chora-tadbirlariga oid milliy siyosat O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining o‘ziga xos jihatlari inobatga olgan holda xalqaro yondashuvlarga mos ekanini namoyon etadi.

## 5 MEHNAT BOZORIDAGI FAOL CHORA-TADBIRLARNING SAMARADORLIGI VA TA’SIRI

O‘zbekistonda yoshlar uchun faol mehnat bozori tadbirlarining (FMBT) samaradorligi ishtirokchilar qamrovi, bandlikning ortishi, ish o‘rinlarining barqarorligi, ko‘nikmalarning rivojlanishi va yoshlarning qoniqish darajasi kabi mezonlar asosida baholanadi. Dasturlar ko‘lami keng bo‘lishiga qaramay, bu chora-tadbirlarning ta’siri institutsional, hududiy va gender omillari sababli bir maromda emas va cheklanganligicha qolmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan FMBT raqamli platformalar va dual ta’limdan tortib, ish beruvchilarga subsidiyalar ajratish hamda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashgacha bo‘lgan vositalarning yuqori darajada institutsionalizatsiyalashgani va xilma-xilligini namoyon etadi. Kasbiy tayyorgarlik bilan birga mehnatga bo‘lgan talabni rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvga urg‘u berilishi uning kuchli tomonidir.<sup>31</sup> Shu bilan birga, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda: jamoat ishlarining samaradorligi cheklanganligi, hududlarda dasturlardan foydalanish imkoniyatlarining notekisligi, shuningdek, chora-tadbirlar natijadorligini monitoring qilish va baholash jarayonining mehnat bozorini boshqarish milliy tizimiga yetarlicha integratsiya qilinmagani shular jumlasidandir. Bu esa ta’sirni baholash tizimini yanada takomillashtirish, hududiy qamrovni kuchaytirish va xususiy sektor bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.<sup>32</sup>

**Faol tadbirlarning kuchli tomonlari** quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar (jumladan, xotin-qizlar, qishloq yoshlari, kasbiy ta’lim bitiruvchilari) qamrovining ortib borayotgani;
- amaliy va tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatishga e’tibor qaratilayotgani;
- bo‘sh ish o‘rinlarini tanlash va onlayn ta’lim tizimiga AKT yechimlarining integratsiya qilinayotgani;
- ishga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositalarini o‘zida birlashtirgan “Yoshlar — kelajagimiz” dasturining joriy etilganligi.

Shuning bilan birga umumiy samaradorlikni cheklaydigan bir qator **zaif jihatlar** ham mavjud:

- qamrovning notekisligi: olis va qishloq hududlardagi yoshlarning salmoqli qismi chora-tadbirlar bilan qamrab olinmagan;
- ta’sirni baholashning barqaror mexanizmlari mavjud emasligi: aksariyat dasturlarning natijasi va samarasi, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda tizimli baholanmaydi;
- yoshlarga mo‘ljallangan dasturlarni moliyalashtirish cheklangani.

Umuman olganda, O‘zbekistonda faol chora-tadbirlarning salohiyati mahalliy darajadagi yuqori muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari bilan tasdiqlanmoqda, lekin keng ko‘lamli va barqaror ta’sirga erishish uchun institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish, dasturlarni baholashni rasmiylashtirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va inklyuzivlikka ko‘proq urg‘u berish zarur.

<sup>31</sup> Academy for International Cooperation. *Uzbekistan: “Ambassadors of dual TVET” support the reform of the training system in Uzbekistan.* <https://akademie.giz.de/en/uzbekistan-ambassadors-dual-tvet-support-reform-training-system-uzbekistan>

<sup>32</sup> UNICEF (2021). *Uzbekistan Education Sector Analysis.* [https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An\\_UNICEF%202022\\_0.pdf](https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An_UNICEF%202022_0.pdf)

## 6 MUAMMOLAR VA BO'SHLIQLAR

Davlat va rivojlanish bo'yicha hamkorlarning faol sa'y-harakatlariga qaramasdan, O'zbekistonda yoshlar mehnat bozori bandlikka ko'maklashishga qaratilgan faol chora-tadbirlar samaradorligini cheklovchi bir qator tarkibiy va institutsional muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar dasturlarning sifati va hammabopligi bilan ham, boshqaruv va muvofiqlashtirishning tizimli jihatlari bilan ham bog'liqdir.

- Qamrov va resurslarning cheklanganligi. Amaldagi chora-tadbirlar muhtoj yoshlarning faqat bir qismini, asosan shaharlarda, qamrab oladi. Qishloq yoshlari esa o'qitish, kasbiy maslahat, mikromoliyalashtirish va amaliyot dasturlaridan foydalanishda cheklangan imkoniyatlarga duch kelmoqda, ularning ishga joylashish dasturlariga jalb etilishi ham past darajada. Byudjetdagi cheklovlar, hududiy bandlik markazlarining moddiy-texnik bazasi zaifligi va malakali kadrlar yetishmasligi dasturlar ko'lamini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda.
- Ko'p yillar davomida O'zbekistonda yoshlarga oid siyosat asosan keksaroq, an'anaviy qarashlarga ega avlod vakillari tomonidan shakllantirib kelingan.<sup>33</sup> Bu holat yoshlar va qaror qabul qiluvchi shaxslar o'rtasida tafovutni yuzaga keltirgan. Natijada siyosat yoshlarning ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim olish, innovatsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi amaliy ehtiyojlarini qondirishdan ko'ra, ko'proq ma'naviy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlarni saqlashga yo'naltirilgan.<sup>34</sup>
- Yoshlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokining cheklanganligi. 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar deputatlar umumiy sonining atigi 1,3 foizini tashkil etadi. Bu qaror qabul qiluvchi organlarda yoshlar vakilligi darajasining o'ta pastligidan dalolat beradi.<sup>35</sup> Yoshlar ta'limi va bandligi sohasidagi siyosat va qarorlar asosan keksaroq avlod vakillari tomonidan qabul qilinadi, ular esa ko'pincha yangi avlodning o'zgaruvchan ehtiyojlari, umidlari va hayotga bo'lgan munosabatlarini yetarlicha tushunmaydi.
- Ta'lim tizimida, xususan, kasbiy ta'lim yurtlarida sezilarli bo'shliqlar mavjud, ayniqsa, talab yuqori bo'lgan ko'nikmalar borasida. Ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari, dasturiy ta'minot va uskunalari ko'pincha xususiy sektor ehtiyojlariga javob bermaydi. Natijada ish beruvchilar bitiruvchilarning bilimlarini soha talablariga moslashtirish uchun ularni ish joyida qayta o'qitishga majbur bo'lmoqda.
- Xususiy sektorning cheklangan ishtiroki. Xususiy sektor bandlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga sust jalb qilingan. Ish beruvchilar nogironligi bo'lgan shaxslarni va tajribaga ega bo'lmagan bitiruvchilarni ishga yollashga unchalik qiziqmaydi. Ular o'quv rejalarini shakllantirishda kamdan-kam qatnashadi, amaliyot o'tash uchun joy berishni istamaydi, rag'batlantiruvchi choralar (masalan, soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar) esa har doim ham samarali ishlamaydi. Bu esa ishga joylashishga ko'maklashuvchi barqaror mexanizmlarni yaratishni qiyinlashtiradi.
- Yoshlarga kasbga yo'naltirish va individual maslahat berishni kuchaytirish, bu orqali ularga o'z ko'nikmalarini aniqlash, kasbiy rivojlanish yo'llarini o'rganish va mehnat bozori ehtiyojlariga mos keluvchi ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishda manzilli yordam ko'rsatish zarur.
- Tizimli emaslik. UNICEF tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan UPSHIFT, Skills4Girls, UniSat va FunDoo raqamli platformasi kabi ko'plab loyihalar bevosita ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni

<sup>33</sup> Gazeta.UZ (2019). *Qahramon Kuronbayev resigns from the post of head of the Youth Union* [Qahramon Quronboyev Yoshlar ittifoqi rahbari lavozimini tark etdi] <https://www.gazeta.uz/oz/2019/08/30/kuranbayev/>

<sup>34</sup> KUN.UZ (2018). *Uzbek youth demand resignation of the pioneering chairman of the Youth Union* [O'zbekistonlik yoshlar Yoshlar ittifoqining yo'lto'sar raisidan iste'fo so'raydi ] <https://kun.uz/16186691?q=%2F16186691>

<sup>35</sup> IPU Parline. Uzbekistan – Data on youth. <https://data.ipu.org/parliament/UZ/UZ-LC01/data-on-youth/>

qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan: qishloq yoshlari, nogironligi bo'lgan qizlar, NEET-yoshlar, lekin ular ko'pincha umumiy strategiya doirasida emas, balki alohida-alohida tashabbuslar sifatida amalga oshiriladi.

- Faol chora-tadbirlar monitoringi va ularni baholash tizimi zaifligicha qolmoqda. Samaradorlikning standartlashtirilgan ko'rsatkichlari mavjud emas, dasturlarning yoshlarning uzoq muddatli bandligiga, ayniqsa, gender, hududiy va ijtimoiy farqlar nuqtai nazaridan ta'siri muntazam baholanmayapti. Bu esa asosli qarorlar qabul qilish va muvaffaqiyatli tashabbuslar ko'lamini kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi.

## 7 XULOSA

O'zbekistonning demografik tarkibi mehnat bozoriga sezilarli bosim o'tkazmoqda. Mamlakat aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi, bu esa har yili mehnat yoshiga qadam qo'yayotgan fuqarolar uchun ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda yoshlar mehnat bozori o'zaro bog'liq bir qator muammolarga duch kelmoqda: yuqori ishsizlik, NEET guruhidagi yoshlarning salmoqli ulushi, malakalarning bozor talablariga mos kelmasligi, norasmiy bandlik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan, ayniqsa, qishloq hududlarida foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi shular jumlasidandir.

Faol chora-tadbirlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular kasbiy ta'limdan tortib yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan keng doirani qamrab olsa-da, tarqoq xususiyatga egaligi, qamrovining chegaralanganligi va xususiy sektor ishtirokining pastligi sababli samaradorligi cheklangan. Ayollar, nogironligi bo'lgan yoshlar, qishloq yoshlari hamda ijtimoiy nochor guruhlarga mansub yoshlar ayniqsa himoyasiz qatlam bo'lib qolmoqda.

Qishloq joylarda kambag'allikni qisqartirish strategiyalari yoshlarga qishloq xo'jaligi yerlarini taqsimlash bilangina cheklanib qolmasligi kerak, zero dehqonchilik sermehnat soha bo'lib, cheklangan daromad keltiradi. Hukumatlararo kelishuvlar doirasida yanada barqaror va yuqori daromad keltiradigan til va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish ancha samaralidir.

Mamlakatda yoshlar bandligiga ko'maklashishning institutsional tuzilmasi faol o'zgarish bosqichida bo'lsa-da, u muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirishni, shaffoflikni oshirishni hamda yoshlar ehtiyojlarini hisobga olishni taqozo etadi. Raqamlashtirish, idoralararo hamkorlik va biznesni kadrlar tayyorlashga faol jalb etish barqaror tizimning asosiy unsurlaridir.

Tavsiyalar:

- Yoshlar bandligiga oid mavjud strategiyalarda umummilliy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda o'zgacha qiyinchiliklarga duch kelayotgan qishloq yoshlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bular migratsiya, korxonalar va rivojlanish dasturlarining yetishmasligi hamda raqamli tafovutdir.
- Yoshlar bandligi sohasida dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish uchun bitiruvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va ularning keyingi taqdirini kuzatib borish zarur. Hozirgi mavjud ma'lumotlar kesa xususiyatga ega bo'lib, yoshlar bandligining samarali strategiyalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan sabab-oqibat xulosalarini chiqarish imkonini bermaydi.
- Samaradorlik, barqarorlik hamda gender va hududiy tafovutlarni hisobga olishga qaratilgan monitoring va baholash tizimlarini mustahkamlash. Yoshlarga oid faol chora-tadbirlar uchun aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash.
- Bandlik siyosatini ta'lim, raqamlashtirish, gender tengligi va barqaror rivojlanish bilan bog'lash orqali tarmoqlararo dasturlarni integratsiya qilish.

- Ish beruvchilarning ta'lim dasturlarini tayyorlashda va kadrlar sifatini oshirishdagi faolligini kuchaytirish (ko'nikmalarning mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlash). Soliqqa oid va nomoliyaviy rag'batlantirish, dual ta'lim va amaliyotlar tashkil etish orqali xususiy sektor ishtirokini kengaytirish.
- Mehnat bozoriga o'tishni va kasb tanlashni osonlashtirish maqsadida ta'lim tizimida hamda mahalliy bandlik xizmatlarida kasbga yo'naltirish ishlarini kuchaytirish.
- AKT va onlayn platformalarning integratsiyalashuvi bandlik, kasbga yo'naltirish va masofaviy ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, ularni oflayn karyera markazlari imkoniyatlari cheklangan olis hududlarda ham keng ko'lamli, individuallashtirilgan va qulay qiladi. Yoshlar uchun yagona raqamli platforma bo'sh ish o'rinlari, amaliyot va o'quv dasturlarini birlashtirishi, oliy va kasbiy ta'lim muassasalarining karyera markazlari integratsiyalashishi, shuningdek, rezyume/portfolio hamda karyera bo'yicha maslahatchilardan foydalanish imkonini beruvchi shaxsiy kabinetlarni taqdim etishi mumkin. Virtual bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari va bo'sh ish o'rinlari to'g'risida tezkor xabarnomalar yuboruvchi mobil ilovalar xizmatlar qamrovini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tahlili va katta hajmli ma'lumotlardan foydalanish mehnat bozorini kuzatish, ko'nikma va kasblarga bo'lgan talabni bashorat qilish, shuningdek, ta'lim bo'yicha individual tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Ish beruvchilar tomonidan tan olingan raqamli beydjar bilan mikromalakalar joriy etilishi esa mehnat bozoriga kirish trayektoriyalarini mustahkamlaydi.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi inson kapitalini rivojlantirish va sifatli ish o'rinlarini yaratishga asoslangan yoshlar bandligi bo'yicha tizimli va barqaror siyosatga o'tish imkonini beradi.

## 8 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2023). O'zbekiston Respublikasining 2018–2022-yillardagi mehnat bozori ko'rsatkichlari. <https://stat.uz>

Osiyo taraqqiyot banki. (2022). Markaziy va G'arbiy Osiyoda yoshlar bandligini rag'batlantirish: dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish. <https://www.adb.org/publications/promoting-youth-employment-central-west-asia>

ETF – European Training Foundation (Yevropa ta'lim fondi). (2023). Markaziy Osiyoda yoshlar bandligi va malakasi: O'zbekiston bo'yicha mamlakat hisoboti. <https://www.etf.europa.eu/en>

European Commission (Yevropa komissiyasi). (2023). Yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash: kelajak avlod uchun ish o'rinlariga ko'prik. <https://ec.europa.eu>

XMT – Xalqaro mehnat tashkiloti. (2023). O'zbekiston uchun munosib mehnat bo'yicha 2021–2025-yillarga mo'ljallangan mamlakat dasturi. <https://www.ilo.org>

XMT – Xalqaro mehnat tashkiloti. (2023). Yoshlar bandligining global tendensiyalari 2023: Texnologiyalar va ish o'rinlari kelajagi. <https://www.ilo.org/global/publications>

Xalqaro migratsiya tashkiloti. (2022). O'zbekistondan mehnat migratsiyasi: joriy tendensiyalar va muammolar. <https://www.iom.int/uzbekistan>

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. (2023). Yoshlar bandligi siyosati bo'yicha milliy ma'ruza. (Rus tilida).

IHTT – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. (2020). O'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda mehnat bozorining faol siyosati. <https://www.oecd.org>

SIAT (O'zbekiston Respublikasi integratsiyalashgan tahliliy statistika xizmati) <https://siat.stat.uz/reports-filed/2836/table-data>.

BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi. (2023). O'zbekistonda yoshlar bandligi va tadbirkorligi: muammolar va imkoniyatlar. <https://www.uz.undp.org>

YUNISEF. (2023). O'zbekistonda o'smir qizlar: malaka oshirish va ishga joylashish yo'lidagi to'siqlar. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports>

Jahon banki. (2022). O'zbekiston: Ish o'rinlari diagnostikasi. <https://documents.worldbank.org>

Jahon banki. (2023). Yoshlar bandligini ta'minlash dasturlari: Jahon bankining 2001–2021-yillarda ko'rsatgan ko'magini baholash. <https://ieq.worldbankgroup.org>

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2025). Doimiy yashash joyi bo'yicha 14–30 yoshdagi aholi soni. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2836/table-data>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, 2023. <https://migration.uz/press/news/94>

BMTTD. (2025). O'zbekistonda norasmiy bandlik. <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/informal-employment-uzbekistan>

BMTTD. (2025). Nogironligi bo'lgan yoshlarning mehnat bozorida duch keladigan to'siqlari. <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/barriers-young-people-disabilities-face-labour-market>